



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

NODIR–UZLATNING LIRIK MEROSI VA UNING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI

Asqarov Dilmurod

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, katta ilmiy xodim (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada XIX asrning birinchi yarmidagi Qo‘qon adabiy muhitining yirik namoyandaligidan biri bo‘lgan Nodir–Uzlatning hayoti va lirik merosi tahlil qilinadi. Uzlat lirikasining asosiy mavzulari — ishqiy-falsafiy qarashlar, insonparvarlik g‘oyalari, ijtimoiy adolatsizlikka munosabat, axloqiy-didaktik fikrlar hamda tabiat va bahor manzaralarining badiiy ifodasi yoritiladi. Shuningdek, shoirning Nodira homiylikdagi ijodiy faoliyati, uning o‘z davridagi siyosiy-ijtimoiy muhitga nisbatan tanqidiy qarashlari va xalqparvarlik ruhidagi asarlari ilmiy jihatdan tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon adabiy muhiti, lirik meros, g‘azal, ishqiy-falsafiy lirika, insonparvarlik g‘oyasi, didaktik she‘riyat, mumtoz adabiyot.

ЛИРИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ НОДИРА-УЗЛАТА И ЕГО ИДЕЙНО- ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ

Аскарлов Дилмурод

Институт узбекского языка, литературы и фольклора Академии наук Республики Узбекистан, старший научный сотрудник (PhD)

Аннотация

В данной статье анализируется жизнь и лирическое наследие Нодира-Узлата, одной из ключевых фигур кокандской литературной среды первой половины XIX века. Выделены основные темы лирики Узлата: романтически-философские взгляды, гуманистические идеи, отношение к социальной несправедливости, морально-дидактические размышления, художественное выражение природы и весенних пейзажей. Также научно проанализирована творческая деятельность поэта под покровительством Нодира, его критические взгляды на политическую и социальную обстановку своего времени и его произведения в духе популяризации.

Ключевые слова: кокандская литературная среда, лирическое наследие, газель, романтически-философская лирика, гуманистические идеи, дидактическая поэзия, классическая литература.

THE LYRICAL HERITAGE OF NODIR–UZLAT AND ITS IDEOLOGICAL AND ARTISTIC FEATURES

Asqarov Dilmurod

Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, Senior Researcher (PhD)

Abstract

This article analyzes the life and lyrical heritage of Nodir-Uzlat, one of the major figures of the Kokand literary environment of the first half of the 19th century. The main themes

of Uzlat's lyrics are highlighted - romantic-philosophical views, humanistic ideas, attitude to social injustice, moral-didactic thoughts, and artistic expression of nature and spring landscapes. The poet's creative activity under the patronage of Nodira, his critical views on the political and social environment of his time, and his works in the spirit of popularism are also scientifically analyzed.

Keywords: Kokand literary environment, lyrical heritage, ghazal, romantic-philosophical lyrics, humanistic ideas, didactic poetry, classical literature.

XIX asrning birinchi yarmidagi Qo‘qon adabiy muhitida lirik poeziya taraqqiy etib, dostonchilik ham davom etdi. Ayrim nasriy asarlar ham yaratildi. Lirikada ilg‘or fikr egalari bo‘lgan G‘oziy, Xoziq, Uvaysiy, Nodira, Mahzuna, Ma‘dan kabi shoirlarning asarlari alohida o‘rin egallaydi. Bu davrda satiraning Maxmur kabi yirik vakillari ham paydo bo‘ldi. Nodir (Uzlat) va Uvaysiy kabi shoirlar yaratgan dostonlar mazkur davr adabiyotida muhim o‘rin tutadi.

Nodir o‘zining “Haft gulshan” asarida adolatli, xalqparvar hukmdorlar galereyasini yaratib, ularni o‘sha davr hukmronlariga ibrat qilib ko‘rsatdi. Shoir bu asari orqali muhabbat, adolat va ezgulikning g‘alaba qozonishiga ishonch bildirdi.

Uzlat (Uzlatiy), Nodir (Nodiriy), Mahjur (Mahjuriy), Sharif (Sharifiy) taxalluslari bilan o‘zbek va tojik tillarida ijod qilgan Muhammad Sharif XVIII asr oxiri hamda XIX asrning birinchi yarmida yuzaga kelgan ilg‘or yo‘nalishdagi adabiyotning atoqli namoyandalardan biridir.

Hayoti va ijodiga oid manbalarning kamligi, ayniqsa, devonlarining yaqin yillargacha topilmaganligi sababli Uzlat ilmiy jamoatchilikka asosan Nodiraga bag‘ishlangan “Haft gulshan” dostoni hamda to‘rtta o‘zbekcha g‘azali bilangina ma‘lum edi. Shoir ijodi ham, asosan, mazkur doston asosida baholangan edi.

1962-yilda Uzlatning tug‘ilib o‘sgan yurti — Kosondan (hozirgi Namangan viloyati Kosonsoy tumani) shoirning dastxat devoni topildi [7; 62–63-b.].

Uzlatning hayoti va lirik merosiga oid yangi manbalarning qo‘lga kiritilishi shoirning shaxsiyati, ijodining ko‘lami va xususiyatlari haqida dastlabki mulohazalarni bildirishga imkon berdi [8; 64–67-b.].

Uzlat haqidagi muxtasar ma‘lumot Fazliy tazkirasida, ayrim muhim ishoralar esa uning o‘z asarlarida uchraydi. Shoir asarlari ustida olib borilgan tadqiqotlar natijasida Nodir va Uzlat bir shaxs degan xulosaga kelindi. Uzlat devonida Nodir, Sharif(iy), Mahjur(iy) taxalluslari ham uchraydi. Uzlat taxalluslarining aralash qo‘llanishi, shoir hayotiga doir lavhalarning o‘xshashligi bilan bir qatorda, “Haft gulshan” dostoni tarkibidagi quyidagi parcha ham Uzlat taxallusiga ishora qilishi bilan xarakterlidir:

Ki homil anda izzat birla yetsun,

Bu Uzlat qulluqi ichra quvonsun... [4; 22–23-b.]

Mashaqqatli hayot joniga tekkan, hech bo‘lmasa bir oz ta‘minlangan turmushni orzu qilgan shoir Qo‘qonga kelib, ijodiy ish va kotiblik bilan shug‘ullanadi. Bu yerda u iste‘dodli shoir va mohir xattot sifatida shuhrat qozonadi.

Nodir-Uzlatning Qo‘qonga ko‘chib kelgan vaqti aniq ma‘lum emas. Uning asarlari hamda kasonlik do‘sti — mashhur xattot, shoir va ko‘p qirrali olim Muhammad Aminxo‘ja Munshiy she‘rlaridan ma‘lum bo‘lishicha, Uzlat 1810-yilda Kosonda yashagan va kotiblik bilan kun kechirgan.

Umarxon hukmronligi davrida esa u o‘z do‘sti Munshiy bilan Qo‘qonda ijod qilgan. U 1819–1822-yillarda poytaxtda istiqomat qilgan, so‘ng Kosonga ko‘chib ketgan. Uning qachon va nima sababdan bu yerdan ketgani ham ma‘lum emas.

Keyinchalik yana Qo‘qonga qaytib kelgan Uzlat o‘zining mamlakat malikasi Nodiraga bag‘ishlangan devoni debochasida Muhammadalixon hukmronligining ilk davrida Kosonda yashaganini, bir zolim amaldor uning va hamshaharlarining boshiga og‘ir kulfatlar solganini Nodiraga arz qilib, undan lutf-u karam kutganini bayon etadi:

Man erdim asiri charxi xunxor,
Zolim eli ilgina giriftor.
Man xasta g‘arib aylayin arz,
Yetmoq mani arzima erur farz.
Uzlat manga erdi ixtiyorim,
Xoma edi yori g‘amgusorim,
Mandin anga na malol erdi,
Andin manga na zavol erdi,
Nogoh kelib birov yilondek,
Go‘yoki baloyi nogahondek.
Bo‘ldi hama zulmidin haroson,
G‘am loyiga botdi ahli Koson.
Javr ila mani halok etti,
Guldek yuragimni chok etti.
Yeg‘durd boshimga g‘am toshini,
Bahr ayladi ikki ko‘z yoshini...
Ey Moh, ayolmanddurman,
Faqr uyida mustamanddurman...
May sofi agarchi aylasa jo‘sh,
Xum durdini jur‘akash qilur no‘sh.
Atlasdur agarchi tez bozor,
Kim olg‘usi bo‘zni ham xaridor.
So‘zumdur o‘romchi toridek sust,
Zar rishtasi birla aylangiz rust.

Nodira bu jabrdiyda shoirni o‘z panohiga olib, yashashi va ijod qilishi uchun muayyan sharoit yaratib beradi.

Uzlat o‘zi kabi “tolei sho‘r” fozillarga homiylik qilgan Nodira haqida juda iliq va samimiy so‘zlarni yozib qoldirgan. Uning madaniyatni yuksaltirish, mamlakatni obod qilish yo‘lida amalga oshirgan xayrli ishlarini o‘z asarlarida mamnuniyat va minnatdorlik bilan alohida qayd etadi. Bu haqda, jumladan, shunday deydi:

...Hure bu sifat ila kelur oz,
Xurshed kabi jahonda mumtoz.
Olam aro baski hukmrondur,
Bilqisi mamoliki zamondur.
Sultoni nujum ham falakraxsh,
Himmat karami aro jahonbaxsh.
Fazl ahliga berdi oncha poya,
Mehridin alar boshida soya.
Ayladi Amir ruhini shod,
Adl ila qilib jahonni obod.

Umuman, shoir asarlarida Nodira go‘zal, himmatli, oqila, mushfiq, mehribon, ilm va hunar ahlining homiysi sifatida hurmat bilan tilga olinadi.

Uzlat bu davrda kotib sifatida bir necha kitoblarni, jumladan, saroy kutubxonasi uchun Umarxon (Amiriy) devonini ham zo‘r mahorat bilan ko‘chirgan [4; 14–15-b.].

Umarxon vafotidan so'ng uning parishon abyotlarini to'plab, devon tartibiga solib, oltin suvi bilan ko'chirib chiqqan Uzlat yana ko'plab asarlarni ham ko'chirgan.

Ma'lumki, Navoiy devonlari Muhammadalixon topshirig'i bilan 300 nusxada ko'chirilgan. Bu ishga ham Uzlat mohir xattot sifatida o'z hissasini qo'shgan.

Uzlat masnaviy, g'azal, muvashshah, mustazod, muxammas, musaddas, tarjiband, tarkibband, ruboiy, ta'rix va o'lan kabi janrlarda 13 ming misradan ziyod o'zbekcha hamda tojikcha asarlar yaratgan. Ularda shoirning insonga, o'z davriga, hukmron guruhlariga bo'lgan munosabati, falsafiy-axloqiy qarashlari va boshqa masalalar o'z ifodasini topgan. Shu bilan bir qatorda, Uzlat lirikasida uning ijtimoiy borliq, dunyo, inson umriga oid xulosalari, uzoq yillik hayotiy tajribalari va mushohadalari ham aks etgan.

Uzlat lirikasining negizini tashkil etgan ishqiy-falsafiy g'azallarda sevgi va bu ulug' tuyg'u bilan bevosita bog'liq ruhiy kechinmalar ifodalanadi.

Shoir muhabbatni insonning eng oliy fazilati, ma'naviy go'zalligi sifatida talqin etadi. Uningcha, ishq insonni yaxshilikka, xayrixohlikka, insonparvarlikka va yuksak maqsadlarga undovchi muqaddas tuyg'udir. Oshiqqa eng to'g'ri yo'lni ishq ko'rsatadi, deb hisoblaydi shoir.

Shoir hayotni, uning ne'mat va go'zalliklarini yorsiz, uning ishqisiz, muhabbat alamlarisiz sira tasavvur qila olmaydi. Uningcha, muhabbatsiz kishi jonsiz tan, mevasiz daraxtga o'xshaydi:

Ul kishida ishq yo'qtur — jismdurkim, joni yo'q,

Bo'stone ichra ul yanglig' daraxti besamar.

Uzlat bu fikrni qayta-qayta ta'kidlaydi:

Har kishining yori yo'qtur — jismdurkim, joni yo'q,

Ul nechuk qilg'ay tiriklik bo'lmasa jononasi?

Shoir ishqni Navoiy singari "kimiyo" deb ataydi. Oshiq ishq tufayli "mis"dan qimmatbaho "zar"ga aylanadi:

Ishq kimga tushti, bo'ldi oni ruxsori sorig',

Aylamakdur misni zardek kimiyo xosiyati.

Uzlatning lirik qahramoni samimiy, vafodor, o'z muhabbatiga sodiq, faqir-u mard, xullas, barcha insoniy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan yetuk insondir:

Man kabi yo'qtur vafo yo'li aro sobitqadam,

San kabi kelmas jahon mahvashlarida bevafo.

Oshiq o'zining vafodorligini, ishq yo'lida unga teng keladigani yo'qligini aytgan holda, yorga jahon go'zallari ham bevafoqlikda yeta olmasligini ta'kidlaydi.

G'am-u dard-u alam, javr-u jafodin bo'lmadim dilgir,

Ki sandin harna kelsa, jon bila e'zoz aylarman.

Ya'ni g'am, dard, alam, javr va jafodan ko'ngli ranjmaydi, chunki yordan kelgan har qanday narsani jon bilan e'zozlaydi.

Harna kelsa yordin, jonim bilan xizmatda man,

Tushsa g'am ko'nglumg'a, mehmondek mukarramdur manga.

Shoir lirikasiga xos xususiyatlardan biri shundaki, unda mahbubaning tashqi go'zalligi bilan birga, uning fazilatlari ham tavsiflanadi. Oshig'i uchun iltifotsiz bo'lgan ma'shuqa fazilat dengizining mumtoz duri sifatida namoyon bo'ladi:

Mavjdek topti parishonlik jahon daryolari,

Fazl bahri ichra dur yanglig' kamolingni ko'rub.

Umrini dard-u alam bilan o'tkazayotgan, visol gulshanidan bebahra oshiqning tuyg'ulari tobora ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. U endi hijron zulmi va bevafo yor sitamlaridan hasrat qilish bilan cheklanmay, muhabbat ahlini, umuman, oqil va sofdil kishilarni xorlagan muruvvatsiz zamonasini, uning nodon, noqobil, bevafo va berahm kishilarini qoralashga o'tadi.

Shoir o'zi yashagan zamona oqillar uchun zindon bo'lganini, donolik o'rnini jaholat, yaxshilik o'rnini yomonlik, saxovat o'rnini muruvvatsizlik egallaganini ochiq fosh etadi:

Topti nodon zog' yanglig' aysh bog'ida huzur,
Ayladi bandi qafas to'ti kabi go'yolig'im.
Mening ko'nglum o'tig'a hech kishi suv sepmadi hargiz,
Muruvvat ko'rmadim begona birla oshnolardin.

Quyidagi misralarda ham shoirning o'z davridan shikoyati samimiy ifodalangan:

O'tti umrum ishq dardidin jafo-yu g'am bila,
Rozi dil aytishmadim xilvat aro mahram bila.
Bu jahon bilgan kishi — oqilga bir g'amxonadur,
Navbahor ayyomi yanglig' diydai purnam bila.

Shoirni ishq iztiroblari qiynagani kabi, ro'zg'or va tirikchilik azobi ham unga ketma-ket g'am keltiradi:

Solsa boshimg'a tiriklik mehnati g'am uzra g'am,
Man nechuk o'zni bu ahvol ila xurram aylaram.
Falak zulmi, ayyom jafosi shoirni g'am go'shasida yashashga majbur etadi:
Jondin meni emdi ayladi سير,
Javri falak-u, jafoyi ayyom,
...G'am go'shasida qaror ettim,
Xilvat yerin ixtiyor ettim.

Uzlat lirikasida muhabbat mavzusi orqali iqtisodiy va ma'naviy jihatdan asoratga mahkum etilgan sodda, sofdil mehnatkash kishilarning orzu-umidlari, go'zal xulqlari, jo'shqin hayotiy ehtirolari, tushuncha va qarashlari aks ettirilib, insonparvarlik g'oyasi ilgari suriladi.

Shoirning inson taqdiri, uning mehru muhabbati, orzu-havaslar va haq-huquqi haqidagi fikr hamda tuyg'ulari o'sha zamonda hukm surgan zulm va adolatsizlikka nisbatan chuqur norozilik va e'tiroz bilan uzviy bog'liq holda ifoda etilgan.

Uzlat yashagan davrda qiyinchilik va qonli urushlar avj olgan edi. Shoir o'zining bir baytida zamonasidagi shiddatli zulmni quyidagicha tasvirlaydi:

Tegirmon toshidur el farqi uzra gardishi gardun,
Qilur barcha xaloyiq jismini javr ila un yanglig'.

Shoir mehnat ahlining behad xo'rlanganini, kishining qadr-qimmatini pul va boylik bilan o'lchanganini kinoya bilan bayon qiladi:

Sorig' ruxsorim ila ko'z yoshimdin xorlig' ko'rdum,
Agarchi har kishining e'tibori siym-u zar ermish.

Xalq orasidan yetishib chiqib, adolatsiz zamonasining behisob kulfatlarini o'z boshidan kechirgan shoir o'zi kabi qashshoq va jafokash kishilar holiga achinadi, ularga xayrixohlik bilan qaraydi. O'z asarlarida zulm va adolatsizlikni qoralab, hukmronlarni odil, xalqqa mehribon va mushfiq bo'lishga chaqiradi, kishilarni esa go'zal fazilatlar sohibi bo'lishga da'vat etadi.

Rahm aylayu oni, berma ozor,
Gar bo'lsa ayog'ing ostida mo'r,
deya u nafaqat insonga, balki hatto chumoliga ham ozor bermaslik lozimligini uqtiradi.

Uzlat lirikasida didaktika muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, to'g'rilik, soddalik, samimiylilik va saxiylik insonning eng go'zal hamda ulug' fazilatlaridandir. Insonparvar shoir bir qator she'rlarida ana shu xislatlarni targ'ib qilgan. Masalan:

...Ey ko'ngul, ushbu jahonda rost yurg'il, rost tur,
Bo'lmag'ay rasvo qalamdek, bo'lsa yo'l mistar kabi.

Istiqomat etsa har kim sarvdek xizmat aro,
Bo'ldi ruxsori qizil elg'a guli ahmar kabi.
Bo'riyo ixlos ila topsa agar ko'ngli safo,
Qiymati bo'lg'ay fuzun bozor aro gavhar kabi.
Xayru ehson nomasidin etsa bir ko'ngulni jam,
Safhai holi parishon bo'lmag'ay daftar kabi...

Shoir inson kamolotini, uning jamiyatdagi mavqeiini sof odamiylik fazilatlarini bilan uzviy bog'liq holda tasavvur qiladi. Buning uchun real hayot hodisalaridan analogiya yo'li bilan dalillar keltiradi. Uningcha, sarv to'g'ri o'sgani uchun yuksaklikka bo'y cho'zganidek, ko'nglida yaxshi niyat bo'lgan kishilar ham el o'rtasida hurmat va e'tibor qozonadilar:

Bo'ldi olam bog'i ichra sarv yanglig' sarbaland,
Har kishining ko'ngli ichra bo'lsa yaxshi niyati.

Uzlat asarlarida sabr, kamtarlik, vafodorlik va sadoqat kabi xislatlar bilan bir qatorda, ayniqsa, sahoat ulug'lanadi. Shoir kishilarni, xususan, davlatmandlarni "ulusg'a" xayru ehson qilishga, muhtojlarga rahmdil va shafqatli bo'lishga undaydi:

Aylang'il ehson ulusg'a, tortmag'il badnomlig',
Yaxshidin mehru vafo etmoq yamong'a bo'ldi xos.

Uzlat lirikasida insonga husn bo'ladigan go'zal xulq — kamtarlik ulug'lanadi va, aksincha, mutakabbirlik hamda manmanlik keskin qoralangan baytlar ham ko'p uchraydi. Kamtarlikda boshqalarga namuna bo'lgan, "Jahon donolari oldida man tufroqdin ham kam" degan shoir har bir kishidan kichik ko'ngil bo'lishni talab etadi. Ayniqsa, toj-u taxt bilan mast-u mag'rur bo'lib, xalq taqdiri haqida qayg'urmagan xonlarga ularning boshidagi oltin toj vaqtincha ekanini, shu bois mag'rurlanishlari befoydaligini obrazli tarzda ta'kidlaydi:

O'ziga bo'lmasun mag'rur, tushg'ay subh hangomi,
Boshida sham' yanglig' kimki zardin afsare ko'rgach.
Havodis sarsari tojini boshdin ayladi barbod,
Chaman taxtida shohigul o'zini sarvare ko'rgach.
Sovuq yel birla urg'ay yerga oxir charx bedodi,
Boshingga chekmagaysan sham yanglig' toji zar hargiz.

Ma'lumki, may obrazi mumtoz shoirlarimiz ijodida shodlik ramzi, qayg'u-g'amni unutish vositasi hamda ishqiy va dunyoviy mayllarga qarshi turgan ruhoniylarning kirdikorlarini fosh etish usuli sifatida xizmat qilgan. Uzlat she'riyatining ma'lum qismi ham ana shu mavzu bilan bog'liqdir.

Lirik qahramon mayga zamona kulfatlarini, ishq va hijron izzatlarini unutishga, xursandchilik topishga sabab bo'luvchi vosita sifatida qaraydi va soqiyga tez-tez murojaat qilib, undan iltifot so'raydi:

Soqiyo, lutf ayla, to'ldur boda birla jomni,
To chiqarg'ayman ko'nguldin kulfati ayyomni.
Havodis ofati ko'nglumga yuz ming qo'zg'olon soldi,
San, ey soqiy, mani bir jom birla aylagil xushnud.

Oshiq o'zini shod etish uchun nafaqat soqiyga, balki san'at ahli — mutrib va mug'anniylarga ham murojaat etadi:

Mutribo, bazmim aro nag'mani bunyod etgil,
G'amni poymol berib, hasta ko'ngul shod etgil.
Soz ila ka'bayi vayronani obod etgil,
Soqiyo, bir qadahing birla mani yod etgil.

Uzlat lirik she'rlarida inson qalbining istak va talablarini, quvonch, hayajon va alamlarini tarannum etish bilan birga, oshiqning, ya'ni barkamol insonning dunyoviy

muhabbati va saodatiga dushman bo'lgan unsurlarni — shayx, zohid, muhtasib kabi shaxslarni ham ayovsiz tanqid qiladi. Ularning xudbin, firibgar, dilozor, nodon va munofiq kishilar ekanini keskin fosh etadi. Biroq shoirning bunday ruhdagi baytlarida original detallar ko'zga tashlansa-da, an'ananing ta'siri ham yaqqol sezilib turadi. Insonning yaxshiligi va ezgu nomi abadiy yashashiga chuqur e'tiqod bilan qaragan Uzlat har bir kishidan dunyoda yaxshi nom qoldirishni orzu qiladi. Inson go'zalligini yuksak mahorat bilan kuylagan Uzlat o'z lirikasida Vatan va tabiat manzaralarini ham san'atkorona ifoda etgan. Shoirning Navro'z va bahor haqidagi maxsus she'rlarida hamda ayrim baytlarida ona yurt tabiatining jilvalari, kishilarning bahor faslidagi xatti-harakatlari, ruhiy kechinmalari, oshiq-shoirning kayfiyati juda samimiy va konkret tasvirlangan. Quyidagi g'azal ana shular jumlasidandir:

Keldi navro'zu, jahon sahnin chaman etti bahor,
Har taraf gul atridin mushki xo'tan etti bahor.
Dilrabolar sayr uchun gulgun kiyib qildi xirom,
Ushbu yanglig' lola birla yosuman etti bahor.
Sabza gul farshi o'lub, soz etti bulbul nag'masin,
Kim shahanshohim kelur deb, anjuman etti bahor.

Uzlat bahorning xosiyatlarini, uning mo'jaz san'atini faqat g'azallarida tasvirlab qolmay, bu hayotbaxsh va tarovatli faslning ko'rinishlarini, Navro'zning nishonlanishi hamda lirik qahramonning ruhiy holatini kengroq va atroflicha tasvirlash maqsadida she'riyatning tarjiband turidan ham foydalangan. Unda bahor manzarasi quyidagicha tasvirlanadi:

Sarf etar vaqti quyosh fasli bahor,
Kim hamal burji aro topti qaror.
Bog' uza yopti shukufa chatrini,
To'ldi gulshan qushlaridan shoxsor.
Etti rahmat yomg'uri xosiyati
Charx yanglig' yer yuzini lolazor.
Bulbul aylab nola gulning ishqida,
Sarv uzra qumri bo'ldi beqaror.
Tog'u dasht uzra ochildi lolalar,
Bo'ldi el ichra jununluk oshkor.
Keldi navro'zu, mening yorim qani?
Jon xirom etmoqg'a gulzorim qani?

Xullas, Uzlatning bahor va Navro'z haqidagi she'rlarida o'lka bahorining barcha latofatlari, tarovatlari, Navro'z faslining kishini maftun qiluvchi mo'jizalari, odamlarning bu fasldagi ko'tarinki va quvnoq ruhi, o'z yorini ko'rishga mushtoq shoirning kayfiyati hamda ruhiy holatlari o'zining original ifodasini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбек адабиёти тарихи хрестоматияси. II том / тузувчи О. Шарафуддинов. – Тошкент: Ўздавнашр, 1945. – Б. 253–268.
2. Ўзбек адабиёти. III том. – Тошкент, 1959. – Б. 579–588.
3. Нодир. Хафт гулшан (Етти гулшан) / нашрга тайёрловчи Т. Ғафуржонова.–Тошкент, 1961.
4. Қаюмов А. Қўқон адабий муҳити. – Тошкент, 1961. – Б. 250–301.
5. Абдуллаев В. А. Ўзбек адабиёти тарихи. II китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1964.– Б. 169–170.
6. Қодирова М. Нодира (хаёти ва ижоди). – Тошкент, 1965. – Б. 24–25.
7. Ўзбек тили ва адабиёти масалалари // журнал. – 1963. – № 3. – Б. 62–63.
8. Ўзбек тили ва адабиёти // журнал. – 1965. – № 1. – Б. 64–67.